

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TYUTORLAR FAOLİYATI VA ULARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI



*Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Yoshlar bilan ishlash,
ma'naviyat va ma'rifat boshqarmasi boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida ustoz va murabbiylarning o'rni, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati qadimgi mutafakkirlar, xususan, Yusuf Xos Hojib, Burhoniddin Zarnudjiy hamda zamonaviy o'zbek olimlari va davlat arboblarning asarlari asosida tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, tyutorlik va mentorlik kabi zamonaviy murabbiylik formatlari ko'rib chiqilib, ularning ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritiladi. Asosiy e'tibor o'qituvchining axloqiy fazilatlarini, bilimdonligi, kasbiy mahorati va amaliy ko'nikmalarni berish zarurligiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, ustoz, murabbiy, Yusuf Xos Hojib, Burhoniddin Zarnudjiy, tyutor, mentor, kasbiy mahorat, amaliy ko'nikmalar.

Annotation: This article analyzes the role of teachers and mentors in the education and upbringing process, and their importance in societal development, based on the works of ancient thinkers, particularly Yusuf Khos Hojib and Burhaniddin Zarnudjiy, as well as modern Uzbek scholars and statesmen. The article also examines modern mentoring formats such as tutoring and coaching, highlighting their

significance in the education system. The primary focus is on the teacher's moral qualities, knowledge, professional skills, and the necessity of imparting practical skills.

Keywords: Education, upbringing, teacher, mentor, Yusuf Khos Hojib, Burhaniddin Zarnudjiy, tutor, mentor, professional skills, practical skills.

Kirish

Ta'lim va tarbiya inson hayotining eng muhim poydevorlaridan biri bo'lib, jamiyatning ma'naviy va ilmiy taraqqiyotida ustoz va murabbiylarning o'zni beqiyosdir. Qadimgi mutafakkirlar bu borada chuqur fikr yuritganlar va ularning g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, har bir jamiyat kelajagi yosh avlod qanday tarbiya olganiga bevosita bog'liqdir. Mazkur maqolada ustoz va murabbiylikning tarixiy ildizlari, zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va uning yangi formatlari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida murabbiy tanlashning muhimligini alohida ta'kidlab, o'g'il-qiz pok tarbiya ko'rishi uchun ustozning o'zi ham yuksak axloq va bilim egasi bo'lishi lozimligini uqtiradi. U, shuningdek, ta'lim jarayonida nafaqat ilm, balki odob-axloqni ham o'rgatish zarurligini qayd etgan. Yusuf Xos Hojib ta'limning amaliy ahamiyatini ham yuksak baholab, o'g'il-qizga ilm bilan bir qatorda san'at va hunar o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi [1]. Chunki hunar egallagan inson kelajakda mustaqil hayot kechirishga, jamiyatga foyda keltirishga qodir bo'ladi. Bugungi kunda bu fikr ayniqsa dolzarb bo'lib, kasbiy ta'lim va innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashgan o'quv jarayonlari rivojlanmoqda. Yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun faqat nazariy bilim berish emas, balki ularga amaliy ko'nikmalar ham o'rgatilishi lozim.

Burhoniddin Zarnudjiy o'zining "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" asarida bilimlarni samarali o'zlashtirish usullariga urg'u beradi. Uning fikricha, o'qituvchi barcha fanlar ichidan eng muhimlarini tanlab, o'quvchiga yetkazishi lozim.

Bilim olish jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchi o'z ustoziga va tanlangan fang'a nisbatan to'liq qanoat hosil qilishi kerak. Ushbu tamoyillar bugungi ta'lim tizimida ham dolzarb bo'lib, zamonaviy pedagoglar tomonidan tanlangan fanlarning amaliy va nazariy ahamiyatini hisobga olish juda muhim sanaladi.

Yunon faylasufi Suqrotning "Barcha illatlarning kelib chiqishi ilmsizlikdandir" degan so'zlari, o'qituvchining ma'naviy boyligi uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi va yuksak insoniy fazilatlari bilan baholanishini ko'rsatadi [1]. Hikmatulla Abdullayev o'zining "Yashil daftar hikmati" asarida muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloq-odobida ekanini ta'kidlab, uning har bir harakati ibrat namunasi bo'lishi kerakligini uqtiradi. Ayniqsa, o'qituvchining nutqi tushunarli, ravon va ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir [2].

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimov "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" asarida tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi [3]. Shuningdek, I.A. Karimovning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafliysi o'qituvchilik va murabbiylikdir" degan so'zlari ham ustozlik kasbining ulug'vorligini ko'rsatadi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev asarlarida ham ustoz degan ulug' kasbning mas'uliyatli tomonlari, xalqimizning ustoz va murabbiylarimizga bo'lgan faxr tuyg'usi o'z aksini topgan. "...Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanamiz" [4].

Tyutor tushunchasi bo'yicha respublikamizda ham bir qator tajribalar mavjud bo'lib, ilmiy tadqiqot ishlarda quyidagicha ta'riflar berilgan: Jumladan, A. Asqarov, A. Ibraymov ishlarda "Tyutor (o'qituvchi-konsultant) — masofadan malaka oshirish o'quv jarayonida tegishli o'quv moduli bo'yicha tinglovchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi, metodik yordam ko'rsatuvchi, o'qish va bilish nazoratini amalga oshiruvchi hisoblanishi" hamda tyutorlar masofaviy malaka oshirishda 4 ta o'qitish shakli bo'yicha faoliyat olib borilishi ta'kidlangan [5].

O. I. Vitvar o'z tadqiqotida murabbiylikni an'anaviy tushuncha sifatida ta'riflab, uni ustoz-pedagog tomonidan yosh o'qituvchiga tajriba va bilim uzatish jarayoni deb ta'kidlaydi [6]. Bu jarayonda asosiy e'tibor yosh mutaxassisning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va uning kasbiy faoliyatga moslashishiga qaratiladi. Biroq, zamonaviy jamiyatda ta'lim sohasidagi yangi talablar va texnologiyalar murabbiylik tushunchasini yangi mazmun va shakllar bilan boyitishni talab qilmoqda.

Metodologiya va natijalar

Ushbu maqolada tahlil va sintez metodlaridan foydalanildi. Xususan, qadimgi mutafakkirlar va zamonaviy olimlarning ustoz va murabbiylik haqidagi qarashlari tahlil qilindi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Burhoniddin Zarnudjiyning "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma", Hikmatulla Abdullayevning "Yashil daftar hikmati", I.A. Karimovning "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" hamda Sh.M. Mirziyoyevning asarlari asosida ustoz va murabbiylarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati ochib berildi. Shuningdek, O.I. Vitvar va boshqa olimlarning tyutorlik va mentorlikka oid tadqiqotlari o'rganilib, zamonaviy murabbiylik formatlarining ta'lim tizimiga integratsiyasi masalasi yoritildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha ustoz va murabbiylar jamiyatning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishida markaziy rol o'ynaganlar. Yusuf Xos Hojibning axloqiy tarbiya va amaliy ko'nikmalarni berish zarurligi haqidagi g'oyalari zamonaviy kasbiy ta'limda o'z aksini topgan. Burhoniddin

Zarnudjiyning samarali bilim o'zlashtirish usullari bo'yicha tavsiyalari bugungi pedagogik amaliyotda ham qo'llanilmoqda. Zamonaviy O'zbekiston yetakchilari ham ustoz va murabbiylikning yuksak mas'uliyatini doimiy ravishda ta'kidlab kelmoqdalar. Tyutorlik va mentorlik kabi yangi formatlar esa o'qituvchining faoliyatini yanada samarali va innovatsion qilishga xizmat qiladi.

Muhokama

O.V. Vitvarning tadqiqotiga ko'ra, murabbiylikning yangi formatlari zamonaviy ta'lim tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh va tajribali pedagoglar uchun bu formatlar nafaqat kasbiy ko'nikmalarni oshirish, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy obro'ni mustahkamlash imkoniyatlarini ham beradi. Murabbiylikning zamonaviy shakllari, masalan, tyutorlik, mentorlik, kouching va guruhli treninglar, pedagoglarning professional faoliyatini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda murabbiylik nafaqat tajriba uzatishni, balki innovatsion yondashuvlar, psixologik qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanishni rag'batlantirishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ustoz va murabbiylarning jamiyat hayotidagi o'rni azaldan yuqori baholanib kelgan. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarga axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi, ularni hayotga tayyorlovchi, kasbiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi shaxslardir. Zamonaviy ta'lim talablari va texnologiyalari murabbiylik tushunchasini yangi mazmun va shakllar bilan boyitishni talab qiladi, bu esa o'z navbatida pedagoglarning doimiy ravishda o'z malakasini oshirishini va yangi uslublarni o'zlashtirishini taqozo etadi.

Xulosa

Ustoz va murabbiylik jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Qadimgi mutafakkirlar, jumladan, Yusuf Xos Hojib va Burhoniddin Zarnudjiy asarlarida aks etgan g'oyalar, shuningdek, zamonaviy o'zbek olimlari va davlat

arboblari tomonidan ilgari surilgan fikrlar bu kasbning naqadar sharaflı va mas'uliyatli ekanini ko'rsatadi. O'qituvchining axloqiy fazilatları, bilimi va kasbiy mahorati yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi kunda tyutorlik va mentorlik kabi zamonaviy murabbiylik formatları ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda. Jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bevosita bog'liq ekan, ustoz va murabbiylarga bo'lgan e'tibor va ularning mas'uliyati yanada oshib boraveradi.

O'zbek adabiyotlar ro'yxati

1. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011, 420 b. 19b
2. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
3. Karimov I. A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.
4. Sh. M. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz asari, Toshkent O'zbekiston 2016-yil, 5-bet
5. Asqarov A. D. Masofaviy o'qitish ta'lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta'lim 2015, 10. 59–65 b, 29b
6. Витвар О. И. Современное содержание и способы развития педагогического наставничества в системе образования Российской Федерации. // Педагогика. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2019. Том 4. Выпуск 2. С. 43–51.